



O'ZBEK TILIDA RELIYALAR VA ULARNING TURLARI

*Osiyo texnologiyalari universiteti
o'zbek tili va adabiyot yo'nalishi,
1-bosqich talabasi
Turayeva Marjona Yusuf qizi .*

Annotasiya. Ushbu maqolada realiya tushunchasi va uning turlari haqida tahlil va nazariyalar yoritib o'tilgan. Realিয়া muayyan xalq hayoti, madaniyati, urf-odatlar va tarixidagi g'oyalarni ifodalovchi atama sifatida talqin etilgan. Keltirilgan misollarda realiyaning asosiy turlarini, jumladan, madaniyat, jamiyat, tarix, makon va din bilan bog'liq tushunchalar orqali ifoda etilgan.

Kalit so'zlar: Realiiyalar, til va madaniyat, maishiy realiiyalar, madaniy realiiyalar, ijtimoiy realiiyalar, tarixiy realiiyalar, geografik realiiyalar, diniy realiiyalar.

Annotation. This article examines the concept and types. Reality is defined as a term that represents ideas in the life, culture, traditions, and history of a particular people. Many examples illustrate the main types of reality, including everyday life, culture, society, history, space, and religion. Understanding reality helps us understand the nature of language, as well as society and religion.

Keywords: Realities, language and culture, domestic realities, cultural realities, social realities, historical realities, geographical realities, religious realities.

Аннотация. В этой статье рассматривается понятие и типы реальности. Реальность определяется как термин, представляющий идеи в жизни, культуре, традициях и истории конкретного народа. Многочисленные примеры иллюстрируют основные типы реальности, включая повседневную жизнь, культуру, общество, историю, пространство и религию. Понимание реальности помогает нам понять природу языка, а также общества и религии.



Ключевые слова: Истина, язык и культура, внутренние истины, культурные истины, социальные истины, исторические истины, географические истины, религиозные истины.

KIRISH:

Til har bir xalqning madaniyati, urf-odatlari, turmush tarzi, tarixini aksettiruvchi muhim vositadir. Har bir xalqning hayoti o'sha xalqqa xos narsa, tushuncha va hodisalarni o'z ichiga oladi. Bunday milliy o'zlikni ifodalovchi so'z va iboralar tilshunoslikda "realiya" deb ataladi. Realিয়া tilning milliy xususiyatini saqlab qolish va o'sha xalq madaniyatini boshqa xalqlarga tanishtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Realiyalar — xalq hayoti, madaniyati, urf-odatlari, tarixiy voqealari, turmush tarziga xos bo'lgan narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'z yoki ibora. Bunday so'zlar ko'pincha boshqa tillarda aniq ekvivalentga ega emas yoki tarjima qilinganda qo'shimcha tushuntirishni talab qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi "do'ppi", "mahalla", "sumalak", "navro'z", "beshik to'yi" kabi so'zlar o'zbek xalqining milliy hayotiga xos bo'lgan realiyalar hisoblanadi.

ASOSIY QISM :

Tilshunoslikda realiyalar mazmuni va ifodalash sohasiga ko'ra odatda bir necha turlarga bo'linadi.

1. Maishiy (etnografik) realiyalar

Bu turdagi realiyalarga odamlarning kundalik hayoti, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat bilan bog'liq so'zlar kiradi. Ularda xalqning turmush tarzi, milliy an'analari aks etadi. Masalan, o'zbek xalqiga xos bo'lgan *do'ppi*, *chopon*, *atlas*, *tandir*, *lagan*, *beshik*, *palov* kabi so'zlar kundalik realiyalar sanaladi. Bu so'zlar nafaqat uy-ro'zg'or buyumlarini bildiradi, balki milliy madaniyatning bir qismi hisoblanadi. Badiiy asarlarda bunday realiyalar milliy muhitni tasvirlashda muhim o'rin tutadi.

2. Ijtimoiy-siyosiy realiyalar

Ijtimoiy realiyalar jamiyat tuzilishi, boshqaruv tizimi va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq tushunchalardir. Ular bizga jamiyatning ichki tuzilishi va



ijtimoiy hayotini tushunishga yordam beradi. Masalan, "mahalla", "oqsoqol", "hashar", "hokimiyat", "yig'in" kabi atamalar ijtimoiy realiyalarning bir qismidir. Xususan, "mahalla" tushunchasi O'zbekiston ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutadi va boshqa mamlakatlarnikidan farq qilishi mumkin. Bu realiyalar tarixiy yoki zamonaviy ijtimoiy tizimni ifodalaydi.

3. Geografik realiyalar

Geografik realiyalar deganda ma'lum bir joyning o'ziga xos tabiiy sharoitlari, toponimlari yoki geologik xususiyatlari nazarda tutiladi. Bu omillar aholi yashaydigan joyning tabiiy va moddiy xususiyatlarini aks ettiradi. Masalan, *cho'l*, *voha*, *shahar*, *shaharcha*, *kanal* kabi so'zlar geografik ma'lumotlar hisoblanadi. O'zbek xalqining yashash muhiti va tabiiy sharoitini tasvirlash uchun ishlatiladi.

4. Tarixiy realiyalar

Tarixiy realiya deganda muayyan etnik guruhning o'tmishdagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlar tushuniladi. Masalan, O'zbekiston tarixida uchraydigan "Amir", "Beg", "Xonzoda", "Saroy", "Sibohi" kabi nomlar tarixiy realiyalarni tashkil qiladi.

Bu so'zlar o'tmishdagi davlat boshqaruvi, ijtimoiy bo'linishlar, harbiy tuzumlar haqida ma'lumot beradi va tarixiy matnlarda o'sha davr muhitini tasvirlash uchun ishlatiladi. Tarixiy realiyalar til va tarix o'rtasidagi yaqinaloqani ko'rsatadi.

5. Madaniy va marosim realiyalari

Madaniy realiyalar xalqning urf-odatlarini, marosimlari, bayramlari va an'analarini ifodalovchi so'zlar sanaladi. Har bir millatning o'z madaniyati borligi sababli, bu atamaning boshqa tillarda aniq muqobili bo'lmasligi mumkin. Masalan, O'zbekiston madaniy hayotida *Navro'z*, *Sumalak*, *Kelin salom*, *Beshik to'y*, *Sunnat to'y* kabi so'zlar mavjud. Bu g'oyalar qadimgi madaniyatlar va qadimgi jamiyatlarni aks ettiradi.

6. Diniy realiyalar

Diniy realiyalar — bu xalqning diniy hayoti, ibodatlarini, diniy bayramlari va diniy tushunchalarini ifodalovchi so'zlardir. Bunday realiyalar xalqning ge'tiqodi va ma'naviy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida quyidagi



soʻzlar diniy realiyalar sifatida qaraladi: **Ramazon** — musulmonlar uchun muqaddas roʻza oyi.

Qurbon hayiti — musulmonlarning muhim diniy bayramlaridan biri.

Namoz — musulmonlarning kundalik ibodati.

Masjid — musulmonlar ibodat qiladigan joy.

Roʻza — Ramazon oyida tutadigan ibodat turi.

Bu soʻzlar oʻzbek xalqining diniy anʼanalari va eʼtiqodini ifodalaydi. Boshqa tillarga tarjima qilinganda esa koʻpincha izoh bilan beriladi, chunki ular maʼlum diniy madaniyatga xos tushunchalardir

XULOSA

Realiyalar tilning milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim leksik birlikdir.

Ularda xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati, diniy eʼtiqodlari, tarixiy kechinmalari oʻz aksini topgan. Realiyalar orqali har bir xalqning oʻzligiga xos hayoti, anʼanalari, dunyoqarashi ochib beriladi. Realiyalar turli mintaqalarga koʻra oilaviy, madaniy, ijtimoiy, tarixiy, geografik va diniy turlarga boʻlinadi. Har bir tur xalq hayotining maʼlum bir jabhasini ifodalaydi va milliy madaniyatni yoritishda muhim rol oʻynaydi. Shuning uchun realiyalarni oʻrganish til va madaniyat oʻrtasidagi munosabatlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. **Salomov, Gʻ.** *Tarjima nazariyasiga kirish* : qoʻllanma / Gʻ. Salomov. — Toshkent : Oʻqituvchi, 1978.
2. **Salomov, Gʻ.** *Tarjima nazariyasi asoslari* / Gʻ. Salomov. — Toshkent : Oʻqituvchi, 1983.
3. **Hojiyev, A.** *Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati* / A. Hojiyev. — Toshkent : Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
4. **Neʼmatov, H., Rasulov, R.** *Oʻzbek tili sistem leksikologiyasi asoslari* : oliy oʻquv yurti talabalari uchun qoʻllanma / H. Neʼmatov, R. Rasulov. — Toshkent : Oʻqituvchi, 1995. — 128 b.